



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> June, 2025

## AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDA KINOYANING AKS ETISHI

Nafisaxon Sulaymanova

ToshDO'TAU 1-bosqich tayanch doktoranti

### Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy tahlilning eng muhim unsurlaridan biri bo‘lgan kinoyaning badiiy asardagi o‘rni va ahamiyati yoritildi. Obyekt sifatida Ahmad A’zamning “Kichik ilmiy xodim Hamdamov”, “Odamning olasi”, “Noinsof Muso”, “Almisoqdan qolgan Karim” hikoyalari olindi. Ushbu tadqiqotda muallifning o‘ziga xos kinoyaviy badiiy uslubi imkon qadar yoritib berildi.

**Kalit so‘zlar:** kinoya, obraz, ideal, fantasmagoriya, ko‘povozlilik.

### Annotation

This article sheds light on the role and significance of irony, one of the most important elements of artistic analysis, in a work of art. The objects were Ahmad Azam's stories "Small researcher Hamdamov", "A human being", "Dishonest Musa", and "Left over from almonds Karim". In this study, the author's unique ironic artistic style was highlighted as much as possible.

**Keywords:** irony, image, ideal, phantasmagoria, polyphony.

So‘nggi yillarda dunyo adabiyotshunosligida kinoya va uning badiiy vositalari olimlar tomonidan jiddiy o‘rganilmoqda. Kinoyaviy badiiy modusda ijod qilish, ayniqsa XX asr dunyo adabiyotida asosiy uslubga aylandi. Rus yozuvchisi M. Bulgakovning “Usta va Margarita”, “Ityurak”, yahudiy yozuvchisi E. Sevelanining “Samolyotni to‘xtating, tushib qolaman” kabi asarlarida kinoya, istehzo, kesatiq, ramz, ko‘povozlilik, magik realizm, fantasmagoriya kabi usullaridan mahorat bilan foydalanilgan. O‘zbek adabiyotida ham Erkin A’zam, Ahmad A’zam, Luqmon Bo‘rixon, Shoyim Bo‘tayev nasrida kinoyaning o‘ziga xos ko‘rinishlari uchraydi. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida kinoyaga shunday ta’rif beriladi: Kinoya — bu uslubiy vosita; ma’qullagandek yoki rizo bergandek bo‘lib, rad etish, istehzoli kulish. Kinoyada so‘z yoki ifoda nutqda asl ma’nosiga teskari, hatto uni rad etuvchi



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> June, 2025

mazmun kasb etadi. Kinoya uslubiy vosita sifatida majoziy so‘zlar orqali piching va istehzoni ifodalaydi. Komiklikning bir turi bo‘lgan kinoyada kulgilik jiddiylik niqobi ostiga yashirinib, o‘zida so‘zlovchidagi ustunlik yoxud gumonsirash tuyg‘usini aks ettiradi. Kinoya obyektga chetdan turib nazar tashlash natijasida yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, kinoya obyektga chetdan, tashqaridan baho berish vositasidir.

Yozuvchi Ahmad A’zamning dastlabki kitobiga kirgan “Odamning olasi” nomli hikoyasida artistlikka moyil, vaziyatga qarab turli rollarni ongli ravishda o‘ynay oladigan, atrofdagilar xatti-harakati, ruhiyatini boshqara olishga qodir qahramonga nisbatan muallif simpatiyasini sezish qiyin emas. Biroq A. A’zam mazkur hikoyasini keyingi kitobiga kiritishni ma’qul ko‘rmadi – yozuvchi “Odamning olasi” yozilgan paytdagi ijodiy pozitsiyasidan voz kechdi. Sherqo‘zi – halim odam, ammo hamma hayiqadi. Shu sababmi, o‘g‘li Sulton uylanish orzusi borligini onasi orqali otasiga bildiradi. Sherqo‘zidagi “artistizm” o‘g‘lining uylanish xohishi o‘rtaga chiqqanda avj pallasiga yetadi. Aytishga oson-u, xotin olishning o‘ziga xos g’alvalarini kulgili tarzda tasvirlab beradi, undan ko‘ra ilm-hunar o‘rganishning foydasini ko‘rsatadi. Syujet davomida Sulton va amakisi Muso o‘rtasidagi ziddiyat yaqqol ko‘zga tashlanadi: yosh, ammo uylanish maqsadidagi jiyan va yoshi o‘tgan, ilm yo‘lida uylanishni ortga surib kelayotgan amaki. Sherqo‘zining bu ikki holatga ham munosabati ijobiy emasligi hikoya davomida anglashiladi.

Bundan farqli ravishda, “Kichik ilmiy xodim Hamdamov”, “Almisoqdan qolgan Karim”, “Noinsof Muso” hikoyalari qahramonlari kinoyaviy pozitsiyaga ozmi-ko‘pmi qalb dramasini boshdan kechirgan holda keladilar: Hamdamov ichi va tashi o‘rtasidagi ziddiyatdan o‘zi ham bezib charchab ketadi (“Ko‘nglida boshqa gap-u, tilida...”), “Noinsof Muso”ning qahramoni “odamlik”kacha yana qancha “loy kechishi” kerakligi haqida o‘ylaydi, “ko‘ngli o‘lganidan” norozi Adhamning Karimga tushunarsiz ichki dardi bor. Ushbu hikoyalarda roviy voqelik ustidan, qahramon atrofdagilar ustidan kinoya qiladi, qahramon ba’zan o‘z-o‘ziga kinoya qiladi. Shunga ko‘ra, muallif g‘oyaviy-badiiy niyatidan kelib chiqqan holda bir asar davomida kinoya subyekti ham o‘zgarib turadi. “Kichik ilmiy xodim Hamdamov” hikoyasida muallif kichkina odamlarga xos jihat – o‘zi uchun qolip yasab olib, shu qolipdan chiqmay yashash odati ustidan kinoya



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> June, 2025

qiladi. Hamdamov institutda baobro‘, ilmli odam, ammo ko‘chadagi bezorilar uchun hech kim. Hamdamovning o‘zida tashqi olamga nisbatan qarama-qarshilik bor. “Ma’suda esa uni hech kimdan qo‘rqlaydi deb o‘ylaydi. O‘tirishda qo‘polroq hazil qilgani uchun Halimovni urmoqchi bo‘lganida, Ma’suda uni xonasiga qamab, bir soatcha avrab, tinchitgan edi...” Demak, Hamdamov “qo‘rqlaydi” emas, qo‘rqlaydi deb o‘ylashlarini istaydi, aslida kimmnidir urish uning xayoliga ham kelmagan, shu paytgacha birov bilan mushtlashmagan ham. U o‘zini kuchli, qaysar, qo‘rqlas qilib ko‘rsatishga, shu bilangina kifoyalanishga o‘rganib qolgan, bu xislatlarning real isbotini ko‘rsatish zarurati tug‘ilganida esa nima qilishini bilmay dovdirab qoladi. Shunga ko‘ra, muallif nima uchun Hamdamov xarakterini boshqa jiddiyroq, ijtimoiy jihatdan muammoliroq vaziyatda, masalan, boshlig‘i bilan to‘qnashuvda emas, nihoyati ko‘chadagi jizzaki o‘smirlar bilan tortishuvda ko‘rsatishni ma’qul ko‘rganligining sababini tushunish mumkin – Hamdamovdagi kichkina odamlik muhitning ta’siri, tazyiqi tufayligina emas, u shunchaki o‘zidagi insonlik “men”ini qadrlay olmagan, uni ko‘rsatishga intilmayotgan odam. Muallif kinoyasi qahramon xarakterining ayni shu jihatiga qaratilgan. Qahramon aytmoqchi bo‘lgan gapi o‘rniga boshqasini aytadi, o‘ylagani o‘rniga boshqa ishni qiladi, shu sabab unga nisbatan muallif kinoyasi kuchayib boraveradi.

Hamdamov chetdan qaraganda go‘yo o‘zidan, hayotidan qoniqadigan, kundalik mayda-chuydalardan baland turadigan, qadr-qimmatini biladigan odamdek gavdalananadi. Biroq parchadagi muallif kinoyasini (“bezorilik, mushtlashish ilmi”, “ilmiy jasorat” “kundalik, mayda-chuyda jasorat”) e’tiborga olsak, Hamdamov bu mulohazalarni o‘z holatini oqlash, o‘zini yupatish uchun aytayotgani anglashiladi. Shu tarzda hikoyaning nomi ham ikkiyoqlama, kinoyaviy ma’no kasb etadi: kichik ilmiy xodim Hamdamov. Hikoya davomida biror o‘rinda qahramonning ismi berilmaydiki, bu ham uning o‘zaro munosabatlarda o‘z insonlik “men”iga emas, balki kichkina bo‘lsa ham rasmiy o‘rniga ko‘proq tayanishi, ishonishiga kinoyaviy ishora qiladi.

Kinoyaviy munosabat yetakchilik qiladigan asarlarda har qanday hamdardlik ham, muallif nigohining qahramon nuqtai nazari bilan birlashib ketishi ham bilib bilmaslikka olishdan iborat bo‘ladi. Ya’ni kinoya hamisha ikkita nigoh, ikkita nuqtai nazar orqali ifodalananadi, biri tasdiqlayotganni ikkinchisi inkor qiladi, biri ichdan,



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> June, 2025

ikkinchisi tashqaridan (yoki aksincha) kuzatadi. Ba'zan esa har ikkala nuqtai nazar ham to'laligicha mukammal emasligidan kinoyaviy effekt yuzaga keladi. Adibning "Almisoqdan qolgan Karim" hikoyasida xuddi shu jarayonni kuzatish mumkin.

Hikoya syujetida garchi Karimning Mohbibi-Mabiyiga sevgi izhor qilish voqeasi markaziy o'rinni tutsa-da, syujet voqealari davomida Karim – Adham zidligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Karim Adhamning realist, uddaburon, mug'ombirligiga havas qiladi, o'zi nega bunday emasligidan eziladi. Bu ziddiyat asnosida muallif kinoyasi Karimga qaratiladi, Adham esa bu borada deyarli muallif pozitsiyasiga yaqin turadi. Bu bir qarashda shunday. Aslida esa muallif va Adham nuqtai nazarini mutlaq bir xil deb bo'lmaydi. Karimga munosabatda Adham nuqtai nazari muallif uchun qahramondan chetlashish vositasi bo'lsa, Adhamga munosabatda muallif undan bir pog'ona balandroqdan qaraydi – bu orqali qahramon hayotiy pozitsiyasining cheklanganligini ko'rsatadi. Karim yolg'onda yashayapti, Adham esa reallikda yashay olmayapti – har ikkalasi ham muallif uchun ma'qul holat emas.

Yozuvchi "Noins of Muso" hikoyasida esa mayda o'g'ri ni tutish jarayonida o'zi ham maydalashib ketganini his qilgan Musoga kinoyaviy munosabatda bo'ladi. "Dunyodagi hamma katta narsa maydadan ulg'ayadi. Lekin Muso kattadan maydalashib ketyapti". Muso – o'zi yaxshi yigit, ammo shoshqaloq, o'yin qaroq, laborantlik maoshi kamligidan haligacha otasidan pul so'raydi, yetmaganiga hamkasblaridan qarz ko'taradi. Muso hikoya syujetida nima uchun "noins of ligini" o'zi ham bilmaydi, o'g'rilikda hatto o'zidan gumon qilishni boshlaydi. "Yana kim biladi, katta ishlar o'z yo'liga – katta odamlar zimmasida, lekin shunaqa mayda-chuyda hodisalarda Musoga o'xshagan o'yin qaroqlarning vijdoni taskin topmay, hovliqib yurishi ham kerakdir – eshagiga yarasha tushovi-da; olamshumul ishlar qo'lidan kelmaganidan keyin jilla qurmasa, arzimas narsalardan ko'z yumishmasin. Yana shunday maqol ham bor: "O'g'rilik ignadan boshlanadi". To'g'rilik-chi?" E'tibor berilsa, hikoya da muallif masalani deyarli ochiq qoldiradi – kinoyaning har qanday pozitsiyani oxirigacha ma'qullamaslik xususiyati faqat qahramonlarga munosabatdagina emas, balki yozuvchining o'z nuqtai nazariga munosabatida ham kuzatiladi: o'g'rilik ignadan boshlanar ekan, to'g'rilik ham mayda, arzimas narsalardan boshlanmaydimi?!



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> June, 2025

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan hikoyalar voqelik va qahramonga munosabat hamda syujet-kompozitsion xususiyatlariga ko‘ra yozuvchining latifanamo tipdagi asarlari bo‘lib, deyarli bir davrda yaratilgandir. A. A’zamning keyingi asarlari – “Bu kunning davomi”, “Asqartog‘ tomonlarda” qissalari hamda “O‘zim bilan o‘zim” turkumiga kirgan novellalaridagi kinoya yozuvchi ijodiy tadrijida yangi bosqichga ko‘tarilganidan darak beradi.

### **Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Eshonqul N. O‘ziga o‘zi gapirayotgan odam / O‘zAS.- 1999.- 2 iyul.
2. Shukurova B. Yangi o‘zbek nasrida kinoyaning badiiy talqini.
3. Sheraliyeva M. Ahmad A’zam hikoyalarida kinoya. 2013.
4. Hayitova L. Ahmad A’zam asarlarida obrazlar tasviri. 2021.